

Korrupsiya- taraqqiyot kushandasi.



Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Ma'lumki, bu illatning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo'q. Shunday ekan, har bir millat mazkur illatga qarshi kurashish strategiyasini o'zi belgilaydi.

Shulardan kelib chiqib, 2017-yil 3-yanvar kuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi.

Mazkur Qonuning 3-moddasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga doir tushunchalarga ta'rif berilgan, ya'ni korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini, yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish korrupsiya hisoblanadi.

Ushbu qonunning 7-moddasiga ko'ra, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

-O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Oltinsoy tuman Adliya bo'limi boshlig'i

N.Xoliyorov